

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Sharipova Sevara Erkin qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrası Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi

Annontatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarida kreativ fikrlash hamda qobiliyatlarini rivojlantirish to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada o'quvchilarda kreativlikni oshirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni berish va samarali foydalanish yo'llari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, kreativ, interfaol, integratsiya, qobiliyat, muloqot, komil.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается развитие творческого мышления и способностей учащихся младших классов. Также в статье представлена информация о том, как давать и эффективно использовать задания, повышающие креативность учащихся.*

Ключевые слова: *Начальное образование, учитель, ученик, творческий, интерактивный, интеграционный, способности, коммуникативный, совершенный.*

Abstract: *This article discusses the development of creative thinking and abilities of elementary school students. The article also provides information on how to give and effectively use tasks that increase creativity among students.*

Key words: *Primary education, teacher, student, creative, interactive, integration, ability, communication, perfect.*

Ta'limda kreativlik – bugungi zamon talab qilayotgan ta'limdir. Biz ta'lim va tarbiya berayotgan yosh avlod hayot ostonasida qoqilmay, uchragan muammolarni o'zi mustaqil hal qila oladigan, zamonaviy texnika vositalaridan hech ikkilanmay bemalol foydalana oladigan, kishilar bilan muloqotga qiynalmay, tortinmay kirishadigan, erkin va ijodiy fikrlaydigan, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan komil insonlar bo'lib kamol topishi zarur. Bugungi ta'lim sohasida bo'layotgan islohotlar ana shunday dolzarb vazifalarni hal qilishga qaratilganligi bejiz emas, albatta. O'quvchilarda ijodiy mustaqil fikrlashni shakllantirishda darslarda ko'proq Suhbat, muloqot qilish, "Voqeaga sizning fikringiz qanday?", "Siz shunday vaziyatda Qanday yo'l tutar edingiz?", "Siz qahramonning tutgan ishini qanday baholaysiz?", "Bu paytda nima bo'lgan bo'lishi mumkin?", "Nega qahramon shunday yo'l tutdi deb o'ylaysiz?" kabi shunga o'xshash savollar bilan o'quvchilarni baxs-munozaraga jalb etish juda muhim.

Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati

boʻlib, uning oʻz-oʻzini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bogʻliq. Kreativlik (lot., ing. “create ” –yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygʻularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda

Quyidagilarga eʼtibor qaratish zarur:

- 1) Ular tomonidan koʻp savollar berilishini ragʻbatlantirish va bu odatni qoʻllabquvvatlash;
- 2) Bolalarning mustaqilligini ragʻbatlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga eʼtibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladi:

- 1) Oʻzini tavakkaldan olib qochish;
- 2) Fikrlash va xatti-harakatlarda qoʻpollikka yoʻl qoʻyish;
- 3) Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) Boshqalarga tobe boʻlish;
- 5) Har qanday holatda ham faqat yutuqni oʻylash.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga taʼsir qiluvchi muhim omillardan biri oʻqituvchi-oʻquvchilar hamkorligi ekanligiga alohida eʼtibor qaratildi. Maʼlumki, taʼlim jarayoni ikki yoqlama harakterga ega boʻlib, oʻqituvchi va oʻquvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi oʻqituvchi taʼlim jarayonining toʻgʻri tashkiletilishi, taʼlim maqsadlarining toʻgʻri amalga oshirilishi va talim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, taʼlim jarayoni oʻqituvchining toʻliq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan notoʻgʻri fikrning tugʻilishiga asos boʻla olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir boʻysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Oʻquvchi oʻzi uchun qulay sharoitda hayotiy va oʻquv tajribasiga tayanib ogʻzaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda bir fanning oʻzi uchun nomalum qirralari xususida oʻqituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo boʻladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. Oʻqituvchi bunday hamkorlik jarayonida oʻquvchilarning kreativligini oʻstirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, yaʼni oʻquvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu gʻoyat muhimdir. Boshlangʻich taʼlim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi taʼlim Turidan biri boʻlib, taʼlimning bu bosqichida pedagog oʻqituvchilarga katta masʼuliyat yuklatiladi. Yaʼni boshlangʻich sinf

o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiiq eta olish qobiliyati deb oldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova N.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121 betlar.

<http://scientists.uz/view.php?id=3348><http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>

2. Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30th Colletions of scientific works Warsaw 2022. / 115-121 betlar. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>

3. Nasriddinova N. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish metodikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2024. - 205 b.

4. Nasriddinova N. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish mazmuni. J / Ta'lim, fan va innovatsiyalar. 2023. № 5. 68-71-betlar.

5. Nasriddinova N. A. Methods for the development of reading literacy of primary school students through independent thinking. J / International Journal of Health Sciences. - Hindiston, 2022. -1690-1695-betlar. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS5.8968>

6. Turanova Iroda Egamberdi qizi. Education of Primary School Students Based on International Assessment Programs as a Social Pedagogical Problem INTERNATIONAL JOURNAL OF FORMAL OF EDUCATION file:///C:/Users/Asd/Desktop/Ilmiy%20maqolalar/document-105-110-INTERNATIONAL%20JOURNAL%20OF%20FORMAL%20EDUCATION.pdf

7. Turanova Iroda Egamberdi qizi. Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 217-219. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5169>